

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Samandar Niyazimbetov, DSc (History), Professor

Deputy Editor:

Mukhriddin Sodirjonov, PhD (Sociology), Associate Professor
Namangan State University

Editorial Board:

Bozorkul Karimov, PhD (Philosophy), Associate Professor
Bukhara State Technical University

Dilfuza Rasulova, DSc (Economics), Professor
Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Dilshod Sattarov, PhD (Law), Associate Professor
Customs Institute of the State Customs Committee

Djamaliddin Musayev, PhD (Law), Associate Professor
Customs Institute of the State Customs Committee

Farkhod Abdurakhmonov, DSc (Economics), Associate Professor
Tashkent State University of Economics

Ibrohim Ikramov, PhD (Philosophy), Associate Professor
Namangan State University

Jasur Gaipov, PhD (Economics)
Tashkent State University of Economics

Kamaldin Yunusov, DSc (Political Science), Professor
Andijan State University

Kamoliddin Sirojiddinov, PhD (Economics), Associate Professor
Namangan State University

Khusan Abuev, PhD (History), Associate Professor
Navoi State University


Komiljon Tajibaev, PhD (Economics)
Namangan State University

Marapat Akayeva, PhD (Law), Associate Professor
Namangan State University

Nurbek Toshkanov, PhD (Law)
Tashkent State University of Law

Shavkat Turayev, PhD (Philosophy), Associate Professor
National University of Uzbekistan

Ural Khaydarov, DSc (Economics), Associate Professor
Tashkent State University of Economics



REGIONAL ASPECTS OF IMPROVING THE MECHANISM FOR IMPLEMENTING THE PENSION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Kumush Jumabayeva¹.

¹ Doctoral Researcher (PhD Candidate), National University of Uzbekistan.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19357621>

Key words: pension system, pension provision, regional aspects, informal employment, pension coverage, investment activity, multi-pillar pension model, financial sustainability.

ABSTRACT

The purpose of this study is to assess the mechanisms for implementing the pension system in Uzbekistan from a regional perspective and to identify pathways for its improvement. The research employs statistical, comparative, and dynamic analysis methods, as well as an analysis of normative-legal (regulatory) documents. The findings indicate that the key challenges of the pension system include a high level of informal employment, low coverage (38%), and weak investment activity, all of which adversely affect its financial sustainability. Uzbekistan's ranking of 71st in the Allianz Pension Index (2023) confirms the need for comprehensive reforms, particularly highlighting significant deficiencies in the adequacy sub-index. The results suggest that improving the pension system requires the introduction of a multi-pillar model, reduction of informal employment, and enhancement of investment activity. In conclusion, ensuring the long-term sustainability of the pension system necessitates a comprehensive and systematic approach.

O'ZBEKISTONDA PENSIYA TIZIMINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MINTAQAVIY JIHATLARI

Kalit so'zlar: pensiya tizimi, pensiya ta'minoti, mintaqaviy jihatlar, norasmiy bandlik, pensiya qamrovi, investitsiya faolligi, ko'p ustunli pensiya modeli, moliyaviy barqarorlik.

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda pensiya tizimini amalga oshirish mexanizmlarini mintaqaviy jihatlar asosida baholash hamda uni takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda statistik, qiyosiy va dinamik tahlil usullari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pensiya tizimining asosiy muammolari sifatida norasmiy bandlikning yuqori darajasi, past qamrov (38%) hamda investitsiya faolligining sustligi tizimning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Allianz Pension Index (2023) bo'yicha O'zbekistonning 71-o'rinni egallashi tizimda chuqur islohotlar zarurligini tasdiqlaydi, ayniqsa adequacy sub-indeksi bo'yicha muammolar yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pensiya tizimini takomillashtirish uchun ko'p ustunli modelni joriy etish, norasmiy bandlikni qisqartirish va investitsiya faoliyatini rivojlantirish zarur. Xulosa sifatida, tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

O'zbekistonda pensiya tizimini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatdiki, pensiya xarajatlarini faqat davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirish yetarli darajada samarali emas. Shu bois, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda uch bosqichli pensiya tizimi joriy etilgan bo'lib, u davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiya, professional pensiya dasturlari hamda fuqarolarning ixtiyoriy nodavlat pensiya sug'urtasini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishga doir davlat dasturida ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan strategik islohotlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari belgilangan.

Mazkur hujjatlarda pensiya tizimiga oid bir qator ustuvor vazifalar qayd etilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: ilg'or xorijiy tajriba asosida davlat pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va uni isloh qilishga qaratilgan kompleks dasturni ishlab chiqish; amaldagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimini qayta ko'rib chiqish; pensiya jamg'armalarini kapitallashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish; pensiya jamg'armasi mablag'larini samarali safarbar qilish va ularni uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltirish orqali kapital bozorini rivojlantirish; shuningdek, barqaror pensiya tizimini shakllantirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida xalqaro ekspertlardan iborat loyiha ofisini tashkil etish.

Hozirgi kunda jahon miqyosida, shuningdek, O'zbekistonda pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy himoyaga qaratilayotgan e'tibor darajasining ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini mustahkamlash, aholining turmush darajasini oshirish hamda pensiya ta'minotini zamonaviy talablar va hududiy ehtiyojlarga moslashtirish zaruratini yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat xalqaro tajribani o'zlashtirish, balki milliy sharoitlar va demografik xususiyatlarni inobatga olgan holda barqaror, adolatli hamda investitsion faollikni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy vazifalarni belgilab bermoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirga qadar iqtisodiy adabiyotlarda pensiya tizimi hamda ijtimoiy ta'minot tizimida pensiya ta'minotining roli yuzasidan ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar pensiya tizimining mazmuni, uning hududiy jihatlari hamda turli nazariy va amaliy yondashuvlarini ochib beradi. Xususan, pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish va takomillashtirish ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida keng ko'lamda o'rganilgan.

Jahon amaliyotida pensiya tizimining asosan ikki modeli — avlodlar birdamligiga asoslangan taqsimlovchi tizim hamda jamg'arib boriladigan tizim farqlanadi. "O'zbekiston pensiya tizimi ushbu ikki modelga asoslanadi. Pensiya tizimi — ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab tizim bo'lib, u jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi" [1, B.10]. Shuningdek, "pensiya tizimi ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamning muhim shakllaridan biridir" [2, B.3].

"Aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim prinsiplaridan biri — ijtimoiy dasturlarning manzilliligidir. Bu tamoyil bir tomondan shaxslar yoki oilalarning moddiy ahvolini baholash orqali, ikkinchi tomondan statistik ko'rsatkichlarga asoslanib, uchinchi tomondan esa o'z-o'zini aniqlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv ijtimoiy himoya organlaridan katta mehnat talab etishiga qaramay, hozirgi sharoitda eng maqbul hisoblanadi" [3, B.209].

"Pensiya ta'minoti davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi hamda keng ma'noda pensiya sug'urtasini ham qamrab oladi" [4, B.320].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va iqtisodchi olimlarning fikrlariga asoslanib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: pensiya tizimi nafaqat moliyaviy ta'minot mexanizmi, balki ijtimoiy himoya, huquqiy tartibga solish va iqtisodiy barqarorlikni o'zida mujassam etgan kompleks institut sifatida jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini ta'minlaydi. Shu bois, O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish, manzillilik tamoyilini kuchaytirish hamda hududiy pensiya jamg'armalarini rivojlantirish ilmiy-amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirishning mintaqaviy jihatlarini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — hududlar kesimida pensiya ta'minoti samaradorligini baholash hamda demografik va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda tizimni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida davlat dasturlari va strategik hujjatlar o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, pensiya tizimi samaradorligi faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida emas, balki hududiy ehtiyojlar va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'un holda baholandi. Ushbu yondashuv pensiya tizimini hududiy darajada takomillashtirish hamda nodavlat pensiya jamg'armalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirishning mintaqaviy jihatlari bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tizimning asosiy muammolari sifatida norasmiy bandlikning yuqori darajasi hamda investitsiya faolligining pastligi ajralib turadi. Ushbu omillar pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, hukumat tomonidan yangi konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, xususan, jamg'arib boriladigan pensiya hisoblarini raqamlashtirish orqali hududlar o'rtasida tenglikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, asosiy muammolardan biri sifatida norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi qayd etildi, natijada pensiya ta'minoti qamrovi atigi 38 foizni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkich Qozog'iston (34-o'rin) va Rossiya (37-o'rin) kabi davlatlarga nisbatan past bo'lib, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rniga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, Allianz Pension Index (API) reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda 75 ta mamlakat orasida 71-o'rinni egallagan. Mazkur reyting pensiya tizimlarini kompleks baholashga asoslangan bo'lib, unda bir nechta sub-indekslar orqali tahlil amalga oshiriladi.

Birinchi sub-indeks demografik o'zgarishlar sur'ati, davlat va uy xo'jaliklarining qarzdorlik darajasi hamda umumiy turmush darajasini baholashga qaratilgan. Ikkinchi sub-indeks pensiya tizimining barqarorligini, ya'ni uning samarali ishlash darajasini aniqlaydi. Bu jarayonda kapital asosida moliyalashtiriladigan elementlarning mavjudligi, pensiyani kechiktirish uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlar, pensiya nafaqalarini belgilashda demografik omillarning hisobga olinishi hamda pensiya yoshining darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

API reytingining yana bir muhim jihati — pensiya tizimining adekvatligini baholash bo'lib, bunda nafaqat pensiya to'lovlari miqdori, balki keksa yoshdagi aholining mehnat bozorida ishtiroki, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va ularning iqtisodiy tizimga integratsiyasi ham hisobga olinadi. Bu omillar, ayniqsa, pensiya yoshining oshib borishi sharoitida dolzarb ahamiyatga ega.

Umuman olganda, reyting 40 ga yaqin parametr asosida shakllantiriladi va har bir parametr 1 dan 7 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholanadi. Bunda 1 ball pensiya tizimining istiqboldagi muammolarga nisbatan yuqori darajada barqarorligini bildirsa, 7 ball tizimda zudlik bilan islohotlar o'tkazish zarurligini anglatadi. Mazkur metodologiya har bir mamlakat pensiya tizimining demografik va iqtisodiy o'zgarishlarga qay darajada tayyorligini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Quyidagi rasmda Allianz tomonidan ishlab chiqilgan Allianz Pension Index (API) natijalarining bir qismi aks ettirilgan bo'lib, unda turli davlatlarning pensiya tizimlari 1 dan 7 gacha bo'lgan shkala asosida baholangan (1 — eng yaxshi, 7 — eng past ko'rsatkich, ya'ni yuqori ball islohotlarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini anglatadi). API uchta asosiy sub-indeksdan tashkil topgan:

Basic conditions (asosiy sharoitlar) — demografik vaziyat, davlat qarzi va iqtisodiy rivojlanish darajasi;

Sustainability (barqarorlik) — tizimning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va chidamliligi;

Adequacy (yetarlilik) — pensiya to'lovlari miqdori hamda qamrov darajasi.

O'z navbatida, har bir sub-indeks qariyb 40 ta indikator asosida baholanadi va ular negizida davlatlarning umumiy o'rtacha ballari shakllantiriladi.

Rasmdagi tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 4,0–5,0 oralig'ida bo'lib, bu holat pensiya tizimida yuqori darajadagi islohot bosimi mavjudligini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlarda esa mazkur ko'rsatkich, odatda, 2–3 oralig'ida bo'lib, bu pensiya tizimining nisbatan barqaror va samarali faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi.

4.0	Hungary	3.7	4.2	3.8	3.4	
	Chile	3.8	4.0	3.7	3.7	
	Colombia	3.8	4.1	3.8	3.6	
	Thailand	3.8	4.4	3.5	3.9	
	Cyprus	3.9	4.1	4.3	3.3	
	Uruguay	3.9	3.8	4.2	3.6	
	Poland	4.0	4.5	3.7	3.9	
	Pakistan	4.0	4.0	2.9	5.0	
	Qatar	4.0	3.1	4.2	4.2	
	Vietnam	4.0	4.4	3.6	4.3	
	Argentina	4.1	3.9	4.4	3.8	
	Bahrain	4.1	4.0	4.6	3.8	
	South Africa	4.2	3.9	3.9	4.5	
	Turkey	4.2	4.1	4.7	3.7	
	Kenya	4.2	4.2	3.5	5.0	
	Cambodia	4.2	4.2	3.5	5.0	
	Kuwait	4.2	4.0	4.6	4.0	
	Nigeria	4.3	3.7	4.3	4.4	
	Malaysia	4.3	4.3	4.6	3.9	
	Brazil	4.3	4.7	4.7	3.6	
	Romania	4.3	4.4	4.5	4.0	
	Tunisia	4.3	4.5	4.5	4.0	
	United Arab Emirates	4.4	3.2	5.1	4.3	
	India	4.4	4.3	4.9	4.0	
	Laos	4.4	4.4	3.6	5.3	
	Uzbekistan	4.5	4.4	3.6	5.3	
	5.0	Saudi Arabia	4.5	3.9	4.9	4.4
		Morocco	4.6	4.4	4.7	4.6
Lebanon		4.7	4.7	4.3	5.1	
Sri Lanka		4.7	4.4	5.3	4.3	

1-rasm. Allianz pensiya indeksi – 2023 yil [5, 2023]

O‘zbekistonda mazkur ko‘rsatkichlar quyidagicha shakllangan:

- umumiy ball — 4,5;
- basic conditions — 4,4;
- sustainability — 3,6;

adequacy — 5,3.

Mazkur natijalar O‘zbekistonda, ayniqsa, adequacy sub-indeksi bo‘yicha salbiy holat mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichning past darajada shakllanishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo‘lmoqda:

- pensiya miqdorining yetarli darajada yuqori emasligi;
- pensiya ta‘minoti qamrov darajasining pastligi (atigi taxminan 38 foiz);
- norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi.

Keltirilgan ma‘lumotlar O‘zbekistonda pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarurati mavjudligini hamda ushbu sohada kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini yaqqol namoyon etadi. O‘zbekistonning mintaqadagi nisbatan past natijalarining asosiy sabablari sifatida kapital jamg‘arma tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi va norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi ko‘rsatilishi mumkin.

Mazkur ko‘rsatkichlarni yaxshilash maqsadida O‘zbekiston sharoitida quyidagi uchta asosiy yo‘nalishni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- formalizatsiya — norasmiy bandlikni qisqartirish;
- ko‘p ustunli tizimni joriy etish — davlat, xususiy va jamg‘arib boriladigan pensiya mexanizmlarini uyg‘unlashtirish;
- kapitalizatsiya — investitsion pensiya fondlarini joriy etish va rivojlantirish.

Shunday qilib, qisqacha xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda pensiya tizimi institutsional jihatdan mavjud bo‘lsa-da, uning uzoq muddatli samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy qamrovini kengaytirish nuqtai nazaridan chuqur hamda tizimli islohotlar zarur.

2-jadval.

Mamlakatlarda pensiya ta'minotining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Qozog'iston	Rossiya
Pensiya qamrovi	38%	~60%	~65%
Pensiya badallari	12–25%	10–15%	22%
Investitsiya faolligi	Past	O'rtacha	Yuqori
Allianz Pension Ranking (2023)	71-o'rin	34-o'rin	37-o'rin

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur jadval O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiya davlatlarida pensiya tizimining asosiy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eng dolzarb muammolardan biri pensiya qamrovi darajasi bilan bog'liq. Xususan, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich atigi 38 foizni tashkil etib, aholining sezilarli qismi pensiya tizimidan tashqarida qolayotganini anglatadi. Mazkur holat, asosan, norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi hamda ijtimoiy sug'urta mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Qozog'iston va Rossiyada esa pensiya qamrovi mos ravishda taxminan 60 va 65 foizni tashkil etib, ushbu davlatlarda tizimning nisbatan inklyuziv va qamrovli ekanligini ko'rsatadi.

Pensiya badallari bo'yicha ham sezilarli tafovutlar mavjud. O'zbekistonda badallar 12–25 foiz oralig'ida bo'lib, bu nisbatan yuqori daraja hisoblanadi. Biroq, yuqori badal stavkalari tizim samaradorligining oshishiga olib kelmayotgani kuzatilmoqda. Bu esa badallar hajmi va olinadigan pensiya miqdori o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Qozog'istonda badallar darajasi nisbatan pastroq (10–15 foiz) bo'lishiga qaramay, tizim samaradorligi yuqoriroq bo'lib, bunda pensiya jamg'armalarining investitsiya faoliyati muhim rol o'ynaydi. Rossiyada esa badallar darajasi 22 foizni tashkil etadi va davlatning pensiya tizimidagi faol ishtiroki tizimning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

Investitsiya faolligi pensiya tizimining uzoq muddatli barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich past darajada bo'lib, pensiya mablag'larining yetarli darajada investitsiyalanmayotganini anglatadi. Bu esa tizimning asosan joriy tushumlar hisobiga faoliyat yuritishini, ya'ni taqsimlovchi (PAYG) modelga tayanayotganini ko'rsatadi. Qozog'istonda investitsiya faolligi o'rtacha darajada bo'lib, pensiya jamg'armalari moliya bozorlarida faol ishtirok etadi. Rossiyada esa investitsiya faolligi yuqori bo'lib, bu tizimning moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

Allianz Pension Ranking (2023) natijalari ham yuqoridagi tendensiyalarni tasdiqlaydi. Xususan, O'zbekiston 71-o'rinni egallagan bo'lsa, Qozog'iston 34-o'rin va Rossiya 37-o'rinni band etgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston pensiya tizimining rivojlanish darajasi nisbatan past ekanligini hamda tizimni takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur reyting pensiya tizimlarining adekvatligi, barqarorligi va institutsional rivojlanganlik darajasini kompleks baholashga asoslanadi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston pensiya tizimi yuqori badallar, past qamrov darajasi va sust investitsiya faolligi bilan tavsiflanadi. Bu omillar tizim samaradorligini pasaytiradi hamda uning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, pensiya tizimini takomillashtirish maqsadida qamrovni kengaytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish, pensiya jamg'armalarining investitsiya faoliyatini kuchaytirish hamda ko'p ustunli pensiya modelini joriy etish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda pensiya tizimini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning mintaqaviy jihatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini oshirish, shuningdek, uning mavjud moliyaviy manbalarini mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yo'nalishlarda samarali choralar ko'rilishi pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, pensiya ta'minoti tizimini izchil rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bosqichda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda demografik tuzilmaning sezilarli darajada o'zgarishi kuzatilmoqda. Xususan, aholining keksayishi jarayonining jadallashuvi natijasida mehnatga layoqatli aholiga nisbatan pensionerlar ulushi ortib bormoqda. Bu esa ishlovchilar va pensionerlar o'rtasidagi nisbatning yomonlashuviga olib kelib, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga qo'shimcha bosimni yuzaga keltirmoqda. Mazkur tendensiyalarning O'zbekiston uchun ham istiqbolda dolzarb ahamiyat kasb etishini inobatga olib, pensiya tizimini rivojlantirish va uning barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchiidan, pensiya tizimini diversifikatsiya qilish zarur, ya'ni an'anaviy taqsimlovchi (PAYG) modeldan bosqichma-bosqich ko'p ustunli (multi-pillar) tizimga o'tish lozim. Mazkur model davlat pensiyasi bilan bir qatorda majburiy jamg'arma hamda ixtiyoriy xususiy pensiya fondlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilish va tizim barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, pensiya tizimining daromad bazasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun norasmiy bandlikni qisqartirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda barcha mehnatga layoqatli aholini majburiy pensiya tizimiga jalb etish zarur. Natijada pensiya jamg'armasiga tushumlar hajmi ortadi va tizim qamrovi kengayadi.

Uchinchiidan, pensiya jamg'armalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish lozim. Jamg'arma mablag'larini moliya bozorlariga samarali joylashtirish orqali qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish mumkin. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda pensiya tizimining o'zini o'zi moliyalashtirish salohiyatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan kapital bozorlarini rivojlantirish va institutsional investorlar rolini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchiidan, pensiya yoshini demografik va iqtisodiy omillarga mos ravishda optimallashtirish zarur. Aholining umr ko'rish davomiyligi ortib borayotgan sharoitda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirish tizimga tushadigan moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchiidan, pensiya tizimida adolat va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Xususan, to'langan badallar va olinadigan pensiya miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash orqali fuqarolarni rasmiy bandlikka jalb etish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida qayd etish mumkinki, demografik bosim va iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida pensiya tizimini isloh qilish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Yuqorida keltirilgan takliflarning izchil amalga oshirilishi pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, uning samaradorligini oshirish hamda aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vakhobov A.V. *Mechanisms and Instruments for Ensuring the Financial Sustainability of the National Pension System*. In: Proceedings of the ministerial-level scientific and practical conference on “Current Issues of the Pension Provision System in the Republic of Uzbekistan.” Tashkent: Iqtisod-Moliya, 2017, p. 10.
2. Tursunov J.P. *Directions for Ensuring the Sustainability of the Pension Provision System in Uzbekistan*. Monograph, 2023, p. 3.
3. Domashova E., Blagovskaya E., Gonokhova T. *Socio-Psychological Work of Social Protection Specialists with Vulnerable Population Groups*. Vestnik Universiteta, No. 4, 2023, pp. 209–210.
4. Khmelevskaya S.A. (2018). *Pension Insurance: Philosophy, History, Theory, and Practice: Textbook*. Moscow: Dashkov and Co., 320 p.
5. Subran L. (2023). *Allianz Global Pension Report 2023*. Available at: <http://www.allianz-trade.com/economic-research>. 1 Place des Saisons, 92048 Paris-La Défense Cedex, France.
6. Official website of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. Available at: www.stat.uz.

ILMIY TAQRIZ

Mazkur maqola O'zbekistonda pensiya tizimini amalga oshirish mexanizmlarini mintaqaviy jihatlar asosida tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llarini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning dolzarb yo'nalishlaridan birini qamrab oladi. Muallif tomonidan ko'tarilgan masala nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki demografik o'zgarishlar va ijtimoiy himoya tizimlarining barqarorligi bugungi kunda ko'plab davlatlar uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

Maqolaning dolzarbligi yuqori darajada baholanishi mumkin. Muallif pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi, qamrov darajasi va investitsiya faolligi kabi asosiy muammolarni aniqlab, ularni mintaqaviy kesimda tahlil qilgan. Ayniqsa, norasmiy bandlikning yuqori darajasi va uning pensiya tizimiga ta'siri kabi masalalarning yoritilishi maqolaning amaliy ahamiyatini oshiradi. Allianz Pension Index kabi xalqaro reytinglar asosida olib borilgan tahlil ham mavzuning dolzarbligini yanada mustahkamlaydi.

Maqolaning ilmiy yangiligi pensiya tizimi samaradorligini faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki mintaqaviy ehtiyojlar va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida baholashga qaratilgan yondashuvda namoyon bo'ladi. Muallif tomonidan ilgari surilgan ko'p ustunli pensiya modeliga o'tish, pensiya jamg'armalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan takliflar ilmiy asoslangan bo'lib, ular tizimni takomillashtirishning muhim yo'nalishlarini belgilab beradi.

Tadqiqotda statistik, qiyosiy va dinamik tahlil usullarining qo'llanilishi ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ochib berilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar ishonchli manbalarga asoslangan bo'lib, xususan, rasmiy statistika va xalqaro reytinglardan foydalanilgan. Biroq, ayrim hollarda empirik tahlilni chuqurlashtirish, hududlar kesimida aniqroq statistik ko'rsatkichlar bilan boyitish maqolaning ilmiy qiymatini yanada oshirgan bo'lardi.

Maqolaning asosiy kuchli jihatlaridan biri — mavzuning kompleks yoritilganligi va tizimli yondashuvning qo'llanilganligidir. Muallif nazariy asoslar, xalqaro tajriba va amaliy muammolarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilgan. Shuningdek, qiyosiy tahlil (O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiya misolida) orqali muammoning mintaqaviy xususiyatlari aniq ochib berilgan. Taklif etilgan amaliy tavsiyalar aniq, izchil va real sharoitlarga mos keladi.

Shu bilan birga, maqolada ayrim kamchiliklar ham mavjud. Xususan, mintaqaviy tahlil chuqurligi yetarli darajada kengaytirilmagan, hududlar kesimida differensial ko'rsatkichlar yetarli darajada keltirilmagan. Bundan tashqari, iqtisodiy modellashtirish yoki prognozlash elementlarining yo'qligi ilmiy natijalarning analitik chuqurligini biroz cheklaydi. Ayrim joylarda tushunchalar izohini yanada aniqlashtirish va terminologik izchillikni mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Umuman olganda, mazkur maqola ilmiy jihatdan dolzarb, nazariy va amaliy ahamiyatga ega hamda pensiya tizimini takomillashtirish masalalariga muhim hissa qo'shadi. Aniqlangan ayrim kamchiliklar maqolaning umumiy ilmiy darajasini pasaytirmaydi va ularni tahririy ishlov jarayonida bartaraf etish mumkin.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Fundamental Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.